



Jazoni ijro etish muassasalarida ijtimoiy moslashuvni tadqiq etishda gender tengligi.

Nabiyev Nodirbek Alijonovich

Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning ijtimoiy moslashuv jarayonini o'rganishda gender tengligi tamoyillarining ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda ayollar va erkaklar uchun penitensiar muhitning psixologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari taqqoslanib, genderga xos ehtiyojlar va resosializatsiya strategiyalari tahlil qilinadi. Muallif genderga asoslangan yondashuv mahkumlarning rehabilitatsiyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli qayta integratsiyalashuvini ta'minlashda muhim omil ekanligini asoslaydi.

Аннотация: В статье рассматривается значение принципов гендерного равенства при исследовании социальной адаптации осуждённых в учреждениях исполнения наказаний. Выполняется сравнительный анализ психологических, социальных и культурных особенностей пенитенциарной среды для мужчин и женщин, а также их специфических потребностей в процессе ресоциализации. Автор подчёркивает, что гендерно ориентированный подход способствует более эффективной реабилитации осуждённых и их успешной реинтеграции в общество.

Annotation: This article examines the importance of gender equality principles in studying social adaptation of inmates within correctional institutions. The research analyzes psychological, social, and cultural differences in the penitentiary environment for men and women, focusing on gender-specific needs and resocialization strategies. The author argues that a gender-sensitive approach plays a crucial role in enhancing rehabilitation outcomes and supporting successful reintegration of former inmates into society

Jazo ijro etilayotgan muassasalarda ijtimoiy moslashuv o'zining gender xususiyatlariga ham egadir. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun avvalo jinoyatchilikning gender xususiyatlarini, ya'ni jinoyatchi sub'ektlarni belgilash zarur, chunki erkak va ayol ro'yxatga olingan jinoyatchilikning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning katta qismi o'g'rilik va firibgarlikni tashkil etadi, bundan farqli o'laroq, og'irroq huquqbuzarliklar ko'proq erkaklarda kuzatiladi¹⁴. V.N.Kudryavtsev shuningdek, "ayollar orasida eng keng tarqalgan jinoyatlar

¹⁴ Психология криминального поведения / Р. Блэкборн. СПб.: Питер, 2004. С. 69.



shaxsiy, davlat va jamoat mulkini o'g'rilash ekanini qayd etadi; ushbu jinoyat kategoriyasi ayollarning umumiy jinoyatchiligi tarkibida 15 % ni tashkil qiladi"¹⁵.

O'tgan davrlarda ayollar asosan pora berish yoki pora vositachiligi bilan shug'ullangan bo'lsa, hozirda pora oluvchi ayollar ulushi bir necha baravar kamaygan. Jamiyatda ayollarning korrupsion, pora olish-berish bilan bog'liq jinoyatlarga qo'l urmasligi, ularning axloqiy qarashlarini o'sishi, avvalo, sifatli ta'lim va ish bilan bandlik darajasining yaxshilanishiga bog'liq. Ayollar har doim ijtimoiy mas'uliyat hissida yashaydi, jamiyatda o'z obro'sini saqlashga intiladi. Shu qatorda, pora oldi-berdi aksariyat hollarda tizimlashgan va umumiy jinoyat deb qaraladi, bunga qarshi choralar, qat'iy qonunlar va jamoatchilik nazorati bor, bu esa bu turdagi jinoyatlarga berilib ketishni oldini oladi.

Lekin, o'g'rilik, talonchilik kabi jinoyatlar salmog'ining ortib borishi boshqa obyektiv sabablar bilan ham harakterladi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy nomutanosibliklar ortidagi murakkab hayotiy vaziyatlar, yashash darajasining qiyinligi va mehnat bilan bandlik holatlarining notekisligi ayollarni noqulay vaziyatlarga solib, kundalik tirikchilik uchun manba izlashga undaydi. Ayniqsa boshqa insonning qonuniy mulkiga tajavvuz qilish ko'p hollarda zarur hayotiy ehtiyoj yoki ijtimoiy bosim ta'sirida vujudga keladi. Bu kabi jinoiy harakatlarda ishtirok etish ayniqsa ayollarda ko'proq uchramoqda, chunki ular jins holatidan kelib chiqib ijtimoiy va iqtisodiy zaifroq qatlamlarga mansub bo'lishi mumkin. Falsafiy ma'noda, ular erkinlik va mas'uliyatni teran angelaydi, axloq doirasida qarorlar qabul qilishga harakat qilsa-da, lekin hayotiy vaziyat va sharoitlar ularni cheklaydi. Bu ayrim hollarda axloqiy me'yorlar bilan yashash imkoniyatini kamaytiradi, shu kabi jinoyat turlariga qo'l urishga olib keladi. Psixologik tomondan esa, ijtimoiy hayotdagi moddiy yetishmovchiliklar ortidagi ruhiy holatlarning buzilishi inson yurish turishiga salbiy ta'sir qiladi, jinoyatga moyillikni keltirib chiqaradi. Tanlangan ma'lumotlarga ko'ra, ayollar tomonidan sodir etilgan shaxsiy mulk o'g'irliklari soni ularning jinoyatchilik tarkibida 17 % dan 20 % gacha oshgan. Boshqacha aytganda, aniqlangan har beshinchi ayol jinoyatchi

¹⁵ Кудрявцев В.Н. Современные проблемы борьбы с преступностью в России // Вестник Российской академии наук. Т. 69. 1999. № 9. С. 790 - 797.



— o‘g‘ridir. “Shaxsiy mulk o‘g‘irligini sodir etuvchi ayollar soni boshqa turdagi o‘g‘irliklarni sodir etuvchi ayollar sonidan 2-2,5 baravar ko‘p”¹⁶.

Har xil turdagi o‘g‘irliklar ko‘proq ayollar tomonidan shahar sharoitida sodir etiladi. Ular orasida doimiy ravishda o‘g‘irlik qiluvchi va buning uchun avval ham jazolangan ayollar ulushi katta. Asosan, bu kattaroq yoshdagi ayollar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi uzoq yillar davomida boshpanasiz yashab kelgan.

Ayollar uchun tipik jinoyatlardan biri bu bolani o‘ldirishdir. So‘nggi paytlarda ushbu jinoyatlar kategoriyasining o‘shish tendentsiyasi kuzatilmoqda, bu ayniqsa shahar joylarda aniq namoyon bo‘ladi. Buning sabablari qiyin iqtisodiy sharoitlar, ishsizlik va qonuniy bo‘lmagan nikohning mavjudligi bilan bog‘liq.

Izlanish xulosalarimizga asosan, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonining ortib borishi bu o‘sha jamiyatdagi qadriyatlar tizimi hamda sog‘lom ma‘naviy muhitning tanazzuli bilan bog‘liq, chunki oila, mahalla qadriyatlari va tarbiya doimo ayollarda ustuvorlik qilgan, ularning dunyoqarashi jamiyat taraqqiyotini belgilab, erkaklarga nisbatan ancha an‘anaviy bo‘lgan. Oiladagi qadriyatlarning inqirozi ota ayniqsa onaning axloqiy buzuqligi, ichkilikbozlik, urush, notinchlik ortidan kelib chiqadi. Buning oqibatida yoshlar ongida huquqiy nigilizm yoki hayotdan qasd olish tuyg‘ulari qat‘iy shakllanishiga olib keladi. Bu jinoyatga undovchi asosiy motivlardan biridir.

Bugungi kunda ayollar jamoat ishlab chiqarishida ishlashga va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga kirishdilar. Hozirgi kunda ular ishchilar va xodimlarning taxminan yarmidan ko‘progini tashkil etadi va ko‘pchiligi sog‘liqni saqlash, xalq ta‘limi, madaniyat va san‘at, fan va ilmiy xizmatlar, savdo, jamoat ovqatlanishi, kichik tadbirkorlik, ta‘minot, sotuv, xarid, yengil sanoat sohalari va boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda. Yarim milliondan ortiq ayollar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni (odatda kichik va o‘rta) boshqaradi, taxminan bir million ayol esa sexlar, maydonlar, bo‘limlar va boshqa tuzilmaviy bo‘linmalarga rahbarlik qiladi. Ushbu sohalardagi tartibsizliklar ayollar uchun erkaklarga nisbatan ancha sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

¹⁶ Антонян Ю.М Преступность среди женщин.



Ishlab chiqarishda ayollar o'g'irlik va firibgarlikni nafaqat qiymatga ega narsalarga kirish imkoniyati tufayli, balki iqtisodiy yetishmovchilik yoki narxlarning yuqoriligi sababli bu narsalarni boshqa yo'l bilan olish mushkulligi tufayli ham sodir etadilar. Hozirgi kunda ko'plab oilalarda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi, savdo yoki jamoat ovqatlanishi sohasida ishlaydigan ayollar, turmush o'rtog'i bo'lsa ham, asosiy boquvchi bo'lib qolayotgani sir emas. Albatta, ko'plab o'g'irliklar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, tovarlarning yetarli darajada saqlanmasligi va nazoratsizligi, ishlab chiqarishning tartibsizligi hamda odamlar bilan tarbiyaviy ish olib borilmasligi sababli sodir bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, pulning yetishmasligi va hayotga pul kultini joriy etish sharoitida tarbiyaviy ishlar va vijdonga murojaatlar samarasi deyarli nolga tenglashmoqda.

Hozirgi kunda sanoat va qurilish sohasidagi og'ir va past malakali ishlarning taxminan yarmi ayollar zimmasiga tushadi, bu esa normal holat emas va ayollarni demoralizatsiya qiladi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, deyarli yarim million ayol quruvchi kasbini tanlagan, ammo bu sohada mexanizatsiya darajasi o'rtacha 50 % ni tashkil qiladi. Savdo va jamoat ovqatlanishi sohalarida, omborlarda, bazalarda, do'konlarda ayollarga ko'pincha jismoniy mehnat qilishga to'g'ri keladi. Shu sababli, ayollar bunday ishlarni osonlik bilan tashlab ketadi va jinoyat yo'lini tanlashi mumkin. Og'ir, past malakali ish ayolni qattiq va sovuqqon qilishi, uni ayollikka xos sifatlarni, ya'ni noziklik, yumshoqlik, zaiflik va sezgirlikni yo'qotishi mumkin. Natijada, u keskin, tajovuzkor bo'lib, yuzaga kelgan muammolarni kuch orqali hal qilishga moyil bo'ladi. Bu esa bugungi kunda ayollar tomonidan shaxsga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlar, ularning tajovuzkorligi va shafqatsizligining oshishining sabablaridan biridir.

Ko'z o'ngimizda Yangi O'zbekiston jamiyatida gender rollarning transformatsiyasi sodir bo'lmoqda, bu esa jamoat hayotining barcha sohalarida aks etadi, avvalo oilaviy va turmush sohasida, unda erkak va ayolning roli tarkibidagi o'zgarishlar eng yaqqol kuzatilmoqda. "Har bir jamiyatda erkak va ayol roliga oid o'z tasavvurlari mavjud bo'lib, ularning shakllanishi madaniy normalar, urf-odatlar va an'analarga muvofiq amalga oshadi.



Vaqt o'tishi bilan bu elementlar gender rollarini ajratish tizimiga oid stereotiplarga ta'sir ko'rsatadi"¹⁷.

Hozirgi kunda ayol (ayniqsa yolg'iz ona) va bolalarni qo'llab-quvvatlash siyosati izchil rivojlanayotganligi sohaga oid bir qator normativ-huquqiy hujjatlar¹⁸ qabul qilinayotganligi oilaviy siyosatning rejalashtirilgan va samarali shakli paydo bo'lmoqda. Mamlakatimizdagi demografik barqarorlik saqlanib qolsa, ma'lum muddat ichida o'zbek etnosning yanada taraqqiyotiga hech im shubha qilmaydi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, "hayotiy noaniqlik ba'zi ayollar uchun prostitutsiya yo'lini tanlashga sabab bo'ladi, bu esa ushbu qadimiy kasb vakillarini bir-biriga o'xshash qiladi: ularning ruhiy intilishlari va intellektual hayoti deyarli mavjud emas, ular ochko'zlik, sovuqqonlik, qo'pollik, kinoyadorlik, moddiy muammolarga ortiqcha e'tibor va umumiy yetilmaganlik bilan ajralib turadi"¹⁹.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Психология криминального поведения / Р. Блэкборн. СПб.: Питер, 2004. С. 69.
2. Кудрявцев В.Н. Современные проблемы борьбы с преступностью в России // Вестник Российской академии наук. Т. 69. 1999. № 9. С. 790 - 797.
3. Антонян Ю.М Преступность среди женщин.
4. Кон КС Психология половых различий // Вопросы психологии. 1981. № 2.
5. Кудрявцев В Н Преступность и нравы переходного общества. С. 111.

¹⁷ Кон КС Психология половых различий // Вопросы психологии. 1981. № 2.

¹⁸ Mazkur havolaga oid ma'lumotlar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatining birinchi qismida verilgan

¹⁹ Кудрявцев В Н Преступность и нравы переходного общества. С. 111.